

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



INGLIZ TILINI O'QITISH PEDAGOGIKASI VA METODLARI

Narzullayeva Roziya Azamat qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Sh.O.Mamayoqubova

Email: roziyanarzullayeva91@gmail.com

Annotatsiya. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qatori bugungi kunda xorijiy tillar, ayniqsa, inglez tiliga e'tibor kuchayotganligi sababli o'qitish metodikasida jiddiy o'zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqola xorijiy tilning o'qitish metodlarini o'rzanadi va tahsil qiladi. Umumiy qaralganda barcha usullar inglez tilini o'rzanayotgan yoshlarni faol bo'lib, til o'rzanishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: metodika, qo'llanma, talab va taklif, xotira, innovatsion, interfaol.

Аннотация. Наряду с реформами, проводимыми в нашей стране, серьезные изменения и обновления происходят в методике преподавания в связи с увеличением внимания, уделяемого иностранным языкам, особенно, английскому. В данной статье изучаются и анализируются методы преподавания иностранного языка. В целом все методы направлены на то, чтобы активизировать изучение английского языка молодыми людьми и повысить их интерес к изучению языка.

Ключевые слова: методология, пособие, спрос и предложение, память, инновационный, интерактивный.

Annotation. Along with the reforms being carried out in our country, serious changes and updates are being made in the teaching methodology due to the increasing attention paid to foreign languages, especially English. This article studies and analyzes foreign language teaching methods. In general, all methods are aimed at making young people learning English active and increasing their interest in learning the language.

Key words: methodology, manual, supply and demand, memory, innovative, interactive.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin, yoshlarning chet tillarini o'rzanishga bo'lgan intilishi kengaydi va mamlakatimiz tomonidan til o'rzanishga ko'pgina sharoitlar yaratish iahlari boshlab yuborildi. Bugungi kunda xorijiy tilni o'rzanayotgan yoshlar umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi sinfidan boshlab chet tillarini o'rzanishni boshlashadi.

Har bir til o'rzanayotgan bolalarning qiziqishi va bilimni qabul qilish darajasi turlicha bo'lганligi uchun tez va samarali natijalarga olib keladigan to'g'ri o'qitish metodikasini tanlash unchalik ham oson emas. Dunyoning ko'plab davlatlarida ta'limning hamma darajalari uchun eng ko'p tarqalgan yondashuv an'anaviy usul hisoblanadi. An'anaviy sinflarda o'qituvchi bolalar bilan faol ishlaydi, turli xil faoliyat turlarini tanlaydi: yozish, o'qish, takrorlash. Ammo, bitta kamchilik shundaki, guruh yoki sinfdagi til o'rzanotganlarning soni ko'p bo'lганligi sababli o'rganilgan

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



materialning muvaffaqiyat darjasini ko'zlangan natijani bermasligi hisoblanadi. Nazariy bilimlarni egallash bo'yicha talablar quyidagilardan iborat:

- boshlangich sinflarda chet til o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, metodik tushunchalar, vositalar, metodlar, tamoyillar, usullar, mashqlar tizimini to'liq bilish;
- til o'rganuvchilarga til materialini metodikasini tushuntirish;
- chet tilida nutq faoliyati turlarini eshitib anglash, gapirish, o'qish va yozuv malakalarini o'rgatishni samarali bilish;
- chet tili o'qitish jarayonini rejalashtirish, tashkillashtirish, dars rejasi tuzish va reyting tizimini bilish hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'qitish mobaynida ilg'or pedagogik texnologiyalardan, shuningdek, ko'rgazmali slaydlarni kompyuter yordamida namoyish etish, elektron materiallarni proektor yordamida tasvirga chiqarish vositalaridan ishlatiladi. Fanning amaliy mashg'ulotlarida talimning innovatsion, interfaol metodlari, hamda aqliy hujum, munozara, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Ko'rish yordamida xotirada eslab qolish metodini misol qilib oladigan bo'lsak, ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan narsalarini eslab qolishadi. Shunday ekan, darsni har xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar yordamida, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p foydalaniladigan narsa, buyumlarga yozish yordamida yangi lug'atlarni o'rgatish va o'rgangan yangi lug'atlar ishtirotida turli gaplar tuzishni mashq qilish. Masalan, daftar (copybook), stul (chair), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik turmushda juda ko'p foydalanadigan ushbu narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va har doim qo'llanishi sabab, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi. O'rganilgan yangi ma'lumot yoki lug'atlarni yoddan chiqarmaslik uchun ularni takrorlab yurish kerak. Bunda barcha yodlangan so'zlar qatnashmasligi ham mumkin, lekin ko'p so'zlar albatta ishtirot etadi. Shuning uchun ham navbatdagi metodlardan ham foydalanish ancha yaxshi natija bera oladi.

Yangi so'zlarni o'rgatayotgan o'qituvchi doska yoki zamонавиy texnikalardan foydalanmoqchi bo'lsa, ekranidan foydalangan holda, bir-biriga aloqador bo'lgan va so'z yasash mumkin bo'lgan ikki yoki uchta narsanininng rasmini ko'rsatadi. O'quvchilar esa o'sha rasmlarni birlashtirib, hosil qilinish mumkin bo'lgan so'zni topishlari kerak bo'ladi. Masalan, rasmlarning biri baliqning rasmi, ikkinchisi esa har tomonlama suv bilan o'ralgan va suvning o'rtasida yer yoki o'rmonning suratini misol qilib olsak, o'quvchilar qisqa vaqt ichida rasmlar orqali nazarda tutilgan,

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



o'tilgan so'zni topishlari kerak bo'ladi. Bu ikki rasmni birlashtirib ko'ramiz. Birinchi rasmdagi baliq bu "fish", ikkinchi rasmdagi tasvirlangan joy esa "land" va ularning birlashtirsak," fishland" so'zi hosil bo'ladi. Keyinchalik yaxshilab fikr yuritsa, takrorlanishi kerak bo'lgan so'z fishland emas, balki, island ekanligi xotirada analiz bo'ladi. Shu tariqa o'rganilingan yangi ma'lumot yoki so'zlar doimiy xotiraga joylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-son Qarori. – Xalq so'zi. – № 240 (5660). – Toshkent, 2012.
2. Umumiyo o'rta ta'lif maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi. Tuzuvchilar: J. J. Jalolov, M. T. Irisqulov. – Xalq ta'limi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.
3. Tillar bo'yicha umumiyo Evropa ma'lumotnomasi: o'rganish, o'qitish, baholash. – M.: MGLPU. Sarma, 2005. - 248 b.
4. Otajonova, M. (2020). The semantic functions of myth in an artistic context. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 225-229.
5. Jumayeva, M., & Rashidova, M. (2022). THE ROLE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Science and innovation, 1(B8), 1448-1452.
6. Khayrullaeva, K. G. (2020). The functions of nonverbal means in dialogic speech. Journal of Critical Reviews, 7(15), 6174-6183.
7. Celce-Murcia M., Brinton D.M., Snow A.M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – USA. Boston. National Geographic Learning. 2014. – 706 b.
8. Zimnya I.A. Maktabda chet tillarini o'rgatish psixologiyasi. -M.: Ma'rifat, 2001. - 228 b.
9. Gulrukha Khasanova. (2021). THE EFFECT OF MIMICS AND VISION IN TEACHER-STUDENT COMMUNICATION. International Scientific and Current Research Conferences, 1(1), 61–64. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/267>